

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2022- yilning II choragida  
Davlat statistika ishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida Boshqarma  
boshlig‘i B. Maxmadaliyevning**

**AXBOROTI**

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i B. Maxmadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 22- yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan.

Topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2022- yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlari hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, «2022- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi» doirasida boshqarma va tuman, shahar statistika bo‘limlari tomonidan 2022- yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlari, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda **22234,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **4,6 %** ga o‘sdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida **10152,6** mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **105,6 %** ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi **12829,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **103,6 %** ga yetdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7299,1** mlrd. so‘mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **112,3 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 8939,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 292,4 mln. AQSh dollarini, jumladan eksport – 157,0 mln. AQSh dollarini va import – 135,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Xususan, 2022- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami **341 ta** statistika ishlari belgilangan hajm va muddatlarda bajarildi.

2022- yilning yanvar-iyun oylari uchun Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tayyorlanib, viloyat hokimligi, viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish boshqarmasi hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlari natijalariga ko‘ra axborotnomalar va press-relizlar ko‘rinishida shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e’tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **271 ta**, Facebook sahifasida **213 ta** tahilliystatistik ma’lumotlar yangiliklar ko‘rinishida e’lon qilindi, infografika roliklari boshqarmaning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **12 ta** infografika rolklari hamda statistika faoliyatiga oid **77 ta** lavhalar «Qashqadaryo», «Nasaf» telekanallarida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

«Qashqadaryo», «Xazina», «Voqif» va boshqa nashrlarda statistik ko‘rsatkichlar aks etgan 8 dan ortiq materiallar chop etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining «Rasmiy statistika» bo‘limida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha **110 ta** statistika ma’lumotlari to‘plamlari e’lon qilindi.

Statistika ma’lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi sub’ektlar o‘rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida **94 ta** seminarlar, **96 ta** «Ochiq eshiklar kuni» tadbirlari o‘tkazildi, **1787** dan ortiq bukletlar tarqatildi va **56 marotaba** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.